



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent shahrida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma’lumotlar



Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **87,613** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,376** mingtaga ko'paygan yoki **6,1 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **29,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-mart oylarida **3,975** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2023- y. | | 2024- y. |
|----------|------------------|----------|
| 82 237 | Toshkent sh | 87 613 |
| 7 103 | Uchtepa t | 7 263 |
| 2 302 | Bektemir t | 2 471 |
| 9 846 | Yunusobod t | 10 381 |
| 9 536 | Mirzo Ulug'bek t | 10 242 |
| 6 712 | Mirobod t | 7 412 |
| 7 634 | Shayxontohur t | 7 861 |
| 8 140 | Olmazor t | 8 360 |
| 4 622 | Sirg'ali t | 5 110 |
| 7 274 | Yakkasaroy t | 7 842 |
| 7 040 | Yashnabod t | 7 747 |
| 2 076 | Yangihayot t | 2 507 |
| 9 949 | Chilonzor t | 10 417 |

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **87 613** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 975** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida **10 417** tani yoki jamiga nisbatan **11,8 %** ni tashkil etdi.

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

| | |
|----------------|------|
| Toshkent sh. | 28,7 |
| Uchtepa | 24,2 |
| Bektemir | 40,5 |
| Yunusobod | 27,5 |
| Mirzo-Ulug'bek | 30,9 |
| Mirobod | 48,6 |
| Shayxontohur | 21,5 |
| Olmazor | 20,6 |
| Sirg'ali | 30,3 |
| Yakkasaroy | 58,5 |
| Yashnobod | 25,7 |
| Yangiheyot | 14,2 |
| Chilonzor | 37,8 |
| | 10,0 |

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-aprel holatiga, birlikda



2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **28,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **4,4** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,5** birlik, Mirobod tumanida **48,6** birlik, Bektemir tumanida **40,5** birlik, Chilonzor tumanida **37,8** birlik va Mirzo Ulug'bek tumanida **30,9** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Yakkasaroy tumani
– 58,5 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Sirg'ali tumani
– 30,3 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Yangiheyot tumani
– 14,2 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,5** birlik, Mirobod tumanida **48,6** birlik, Bektemir tumanida **40,5** birlik, Chilonzor tumanida **37,8** birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida **30,9** birlik, Sirg'ali tumanida **30,3** birlik birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yakkasaroy tumani

58,5

Bektemir tumani

42,5

Mirzo-Ulug'bek tumani

30,9

Mirobod tumani

48,6

Chilonzor tumani

37,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

| | | |
|-------|----------------|-------|
| 4 126 | Toshkent sh | 4 189 |
| 257 | Uchtepa | 315 |
| 104 | Bektemir | 97 |
| 485 | Yunusobod | 474 |
| 553 | Mirzo-Ulug'bek | 496 |
| 352 | Mirobod | 338 |
| 344 | Shayxontohur | 353 |
| 396 | Olmazor | 392 |
| 242 | Sirg'ali | 278 |
| 343 | Yakkasaroy | 381 |
| 411 | Yashnobod | 396 |
| 162 | Yangihayot | 204 |
| 477 | Chilonzor | 465 |
| 770 | | 663 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

| | |
|----------------|------|
| Mirzo-Ulug'bek | 11,8 |
| Yunusobod | 11,3 |
| Chilonzor | 11,1 |
| Yashnobod | 9,4 |
| Olmazor | 9,3 |
| Yakkasaroy | 9,0 |
| Shayxontohur | 8,4 |
| Mirobod | 8,0 |
| Uchtepa | 7,5 |
| Sirg'ali | 6,6 |
| Yangihayot | 4,8 |
| Bektemir | 2,3 |


2024- yilning yanvar-mart hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek tumani – **11,8** %, Yunusobod – **11,3** %, Chilonzor tumani – **11,1** %, Yashnobod tumani– **9,4** %, Olmazor tumani – **9,3** %, Yakkasaroy tumani, Shayxontohur tumani– **8,4** %, Mirobod tumani – **8,0** %, Uchtepa tumani– **7,5** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024 yillarning yanvar-mart iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-mart iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 602** ta, sanoatda **372** ta hamda qurilish sohasida **277** ta yangidan tashkil etilgan.


Toshkent shahrining tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Mirzo-Ulug'bek tumanida **468** ta, Yunusobod tumanida **448** ta, Chilonzor tumanida **437** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-mart davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida Toshkent shahrida 2020-2024-yillarning yanvar-aprel oylari davomida jami **16 278** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **6 439** (yoki **39,5 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 433** (yoki **21,1 %**) ta, sanoat sohasida – **1 464** (yoki **9,0 %**) ta, qurilish sohasida – **1 239** (yoki **7,6 %**) ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **114** (yoki **0,7 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024-yilning yanvar-martda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **49,8** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2024- yilning yanvar-mart kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-mart kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **78,1** % ni, yo'lovchi aylanmasida **77,7** % ni, qurilishda **71,7** % ni, chakana savdoda **59,6** % ni, yuk aylanmasida **49,3** %, importda **48,0** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-mart hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024-yilning yanvar-mart kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **46 771,8** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (**6 686,9** mlrd. so'm), Chilonzor tumani (**5 235,2** mlrd. so'm), Yashnobod tumani (**5 093,8** mlrd. so'm), Sirg'ali tumani (**4 173,3** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**4 152,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shayxontohur tumani (**2 466,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-martda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (65,5 %), Yunusobod tumani (60,6 %), Yakkasaroy tumani (55,4 %), Chilonzor tumani (54,9 %), Mirzo-Ulug‘bek tumani (42,0 %) va Uchtepa tumani (40,7 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

| | | |
|----------------|----------|------|
| Toshkent sh. | 25 982,1 | 71,7 |
| Bektemir | 703,8 | 69,2 |
| Mirzo-Ulug'bek | 2 918,9 | 77,3 |
| Mirobod | 3 360,6 | 69,2 |
| Olmazor | 1 715,0 | 65,4 |
| Sirg'ali | 1 298,0 | 83,7 |
| Uchtepa | 1 185,6 | 74,2 |
| Chilonzor | 2 890,1 | 76,4 |
| Shayxontohur | 1 863,1 | 57,6 |
| Yunusobod | 3 552,3 | 62,6 |
| Yakkasaroy | 2 755,8 | 76,1 |
| Yangihayot | 1 352,3 | 75,1 |
| Yashnobod | 2386,9 | 88,6 |


2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **25 982,1** mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **71,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **118,7** % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yunusobod (**3 552,3** mlrd. so'm), Mirobod (**3 360,6** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**2 918,9** mlrd. so'm), Chilonzor (**2 890,1** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**2 755,8** mlrd. so'm), Yashnobod (**2 386,9** mlrd. so'm) hamda Shayxontohur (**1 863,1** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda
 ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **23 140,4** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **34,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **90,4** % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Yunusobod (**3 270,7** mlrd. so'm), Olmazor (**2 885,7** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**2 826,1** mlrd. so'm), Chilonzor (**2 496,2** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**1 928,7** mlrd. so'm), Yashnobod (**1 848,6** mlrd. so'm), Uchtepa (**1 710,0** mlrd. so'm) hamda Sirg'ali (**1 561,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **49 871,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **59,6 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **106,7 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

| | | |
|-------------------|---------|------|
| Toshkent sh. | 49871,0 | 59,6 |
| Uchtepa | 6 487,3 | 84,8 |
| Bektemir | 2 591,2 | 84,9 |
| Yunusobod | 6 603,4 | 69,6 |
| Chirchik-Ulug'bek | 3 585,2 | 54,5 |
| Mirobod | 2 886,4 | 43,9 |
| Yangi-Yul | 3 766,9 | 44,5 |
| Olmazor | 4 059,2 | 60,2 |
| Sirg'ali | 2 020,8 | 48,4 |
| Yakkasaroy | 4 783,6 | 61,1 |
| Yashnobod | 4 082,9 | 59,5 |
| Yangiyul | 849,8 | 60,8 |
| Chilonzor | 8 154,4 | 54,9 |

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (**8 154,4** mlrd. so'm), Yunusobod (**6 603,4** mlrd. so'm), Uchtepa (**6 487,3** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**4 783,6** mlrd. so'm), Yashnobod (**4 082,9** mlrd. so'm), Olmazor (**4 059,2** mlrd. so'm) va Shayxontohur (**3 766,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **73 930,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **38,3 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,9 %** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Yunusobod (**11 167,4** mlrd. so'm), Mirobod (**9 055,1** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**8 597,5** mlrd. so'm), Shayxontohur (**7 354,1** mlrd. so'm), Yashnobod (**6 695,5** mlrd. so'm), Olmazor (**6 203,8** mlrd. so'm) va Chilonzor (**5 950,3** mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-mart oylarida)

| | | |
|----------|--|------|
| 29 899,0 | Savdo xizmatlari | 40,4 |
| 17 625,4 | Transport xizmatlari | 23,8 |
| 5 932,9 | Boshqa xizmatlar | 8,0 |
| 4 453,6 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 6,0 |
| 4 143,6 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar | 5,6 |
| 3 100,9 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 4,2 |
| 2 264,8 | Ijara xizmatlar | 3,1 |
| 1 503,8 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 2,0 |
| 1 334,5 | Shaxsiy xizmatlar | 1,8 |
| 1 163,7 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 1,6 |
| 1 017,7 | Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1,4 |
| 787,5 | Moliyaviy xizmatlar | 1,1 |
| 789,3 | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 1,0 |

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **40,4 % (29 899,0 mlrd. so'm)**, transport xizmatlarida – **23,8 % (17 625,4 mlrd. so'm)**, boshqa xizmatlar – **8,0 % (5 932,9 mlrd. so'm)** hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **6,0 % (4 453,6 mlrd. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi kompyuter va maishiy tavarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **1,0 % (789,3 mlrd so'm)** kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **1 199,6** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **24,1** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

| | | |
|----------------|---------|------|
| Chirchik sh. | 1 199,6 | 24,1 |
| Uchtepa | 67,9 | 47,0 |
| Bektemir | 39,5 | 52,5 |
| Yunusobod | 91,2 | 19,0 |
| Mirzo-Ulug'bek | 72,1 | 44,2 |
| Mirobod | 65,6 | 6,3 |
| Yashnobotur | 90,6 | 16,3 |
| Olmazor | 135,0 | 54,5 |
| Yangi-Yul | 74,9 | 18,8 |
| Yakkasaroy | 118,9 | 15,1 |
| Yashnobod | 133,0 | 32,7 |
| Yangihayot | 47,2 | 32,5 |
| Chilonzor | 93,1 | 26,0 |


hajmi, mln. AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmazor tumanida – **54,5** %, Bektemir tumanida – **52,5** %, Uchtepa tumanida – **47,0** %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – **44,2** %, Yashnobod tumanida – **32,7** %, Yangihayot tumanida – **32,5** %, Chilonzor tumanida – **26,0** %, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – **6,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **9 261,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **48,0** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida – **67,1** %, Yakkasaroy tumanida – **59,4** %, Olmazor tumanida – **55,4** %, Mirobod tumanida – **51,8** %, Shayxontoxur tumanida – **49,9** %, Yashnobod tumanida – **49,4** %, hamda Sirg'ali tumanida **48,1** % ni tashkil etdi.


| | |
|----------------|------|
| Toshkent sh | 48,0 |
| Uchtepa | 67,1 |
| Yakkasaroy | 59,4 |
| Olmazor | 55,4 |
| Mirobod | 51,8 |
| Shayxontohur | 49,9 |
| Yashnobod | 49,4 |
| Sirg'ali | 48,1 |
| Yangihayot | 46,2 |
| Bektemir | 43,3 |
| Mirzo-Ulug'bek | 41,8 |
| Chilonzor | 38,6 |
| Yunusobod | 36,3 |
| | 10,3 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **43,2 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **100,3 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **49,3 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **108,6 %** ni tashkil qildi.



Yo‘lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **78,1 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **107,6 %** ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **77,7 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **3 862** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **1 355 (35,1 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **2 163 (56,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **344 (8,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) xizmatlar sohasida – **42,6 % (1 646 ta)**, savdoda – **35,6 % (1 376 ta)**, sanoatda – **14,7 % (569 ta)**, qurilishda – **6,6 % (253 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **0,5 % (18 ta)**ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

| | | |
|-----|----------------|------|
| 444 | Mirzo Ulug'bek | 11,5 |
| 437 | Chilonzor | 11,3 |
| 427 | Yunusobod | 11,1 |
| 380 | Yakkasaroy | 9,8 |
| 356 | Olmazor | 9,2 |
| 354 | Yashnobod | 9,2 |
| 350 | Uchtepa | 9,1 |
| 323 | Shayxontohur | 8,4 |
| 319 | Mirobod | 8,3 |
| 225 | Sirg'ali | 5,8 |
| 145 | Bektemir | 3,8 |
| 102 | Yangihayot | 2,6 |


Soni, birlikda (ta)

Ulushi, foizda

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Mirzo-Ulug'bek (**444** ta), Chilonzor (**437** ta), Yunusobod (**427** ta), Yakkasaroy (**380** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning I choragida **630** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **1 355** taga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **725** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019-yilda **1 723** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **2 163** ta yoki **440** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilda **252** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **344** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **92** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning I choragida **1 019** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **1 298** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **279** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning I choragida **1 330** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **1 691** ta yoki **361** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019-yilning I choragida **235** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **398** tani tashkil etib, **163** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **24,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **35,1** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **10,8** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilda **66,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **56,0** % yoki **10,0** % kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilda **9,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **8,9** % ga yetgan yoki **0,8** % kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **39,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **38,3** % ga yetgan yoki 2019-yilning I choragida nisbatan **1,1** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **51,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **49,9** % yoki **1,6** % kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilning I choragida **9,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **11,8** % yoki **2,7** % oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **43,4 %** ni, savdoda – **35,4 %** ni, sanoatda – **14,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,3 %** ni, savdoda – **35,8 %** ni, sanoatda – **14,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,3 %** ni, savdoda – **33,5 %** ni, sanoatda – **17,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,8** % ni, savdoda – **36,6** % ni, sanoatda – **15,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **44,1** % ni, savdoda – **34,7** % ni, sanoatda – **14,0** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **45,4** % ni, savdoda – **33,7** % ni, sanoatda – **16,8** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 43,9 | 39,2 | 16,9 |
| Band bo'lganlar soni | 23,9 | 64,3 | 11,8 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 34,9 | 58,4 | 6,7 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 23,2 | 68,5 | 8,2 |
| Raqobat muhiti | 32,7 | 61,3 | 6,1 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 43,6 | 50,1 | 6,4 |
| Band bo'lganlar soni | 24,3 | 71,0 | 4,7 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 32,3 | 63,1 | 4,5 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 24,4 | 70,4 | 5,2 |
| Raqobat muhiti | 31,5 | 64,4 | 4,1 |


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli